

ABDULLA QAHHORNING ZAROFATLI SO‘ZI

Nizomiddin MAHMUDOV¹

Filologiya fanlari doktori, professor

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori

Tom ma’nodagi so‘z san’atkori, o‘zbek hikoyanavislarining sardori Abdulla Qahhorning tilga munosabati barcha ijodkorlar uchun ulkan ibrat maktabi ekanligi hech kimga qorong‘i emas. Uning o‘tkir hikoyalarini, yirik nasriy asarlarini, mahorat bilan qilingan badiiy tarjimalarini, badiiyat va til haqidagi katta-kichik maqola va qaydlarini huzur bilan o‘qir ekanmiz, ana shu tuganmas ibrat maktabining zukko o‘quvchilari sifatida ham faxr, ham mas’uliyat hissini tuyamiz. A.Qahhor qalamiga mansub har qanday asarni o‘qib chiqqan kitobxon – u xoh adabiyotshunos yoki tilshunos bo‘lsin, xoh oddiy o‘quvchi bo‘lsin – so‘zning badiiy va lisoniy imkoniyatlaridan hayratga tushadi, oddiy, avvaldan tanish bo‘lgan shunchaki so‘zlar uning nazarida noziklashganday, ma’nan kengayib, kattalashib ketganday tuyuladi. So‘zlarni “jumla” deb ataladigan qat’iy qatorga bu qadar muvofiq va mutlaq o‘rnashtirib tizish mumkin ekanligiga qoyil qoladi. Atoqli yozuvchi Said Ahmad A.P.Chexovning til mahorati haqida gapirar ekan, shunday deb yozadi: “So‘zni u xuddi mix qilib qoqib qo‘ygandek. Ombir bilan ham sug‘urib ololmaysiz. Qopqog‘i bilan qoqib ombir tishlamaydigan qilib qo‘yadi”² Buyuk so‘z ustasi A.P.Chexovni o‘zbek tilida “gapirtirgan” Abdulla Qahhor ham so‘zni matnga ana shunday “mix qilib qoqib qo‘ygan”. Uning har bir asari bunga xolis guvohdir.

Aytish lozimki, A.Qahhor asarlarining lingvopoetikasi, ya’ni ulardagi til vositalarining badiiy mazmuni ifodalashdagi ishtiroki muammolari hozirgacha mukammal tadqiq etilgan emas. Holbuki, bu ulkan so‘z san’atkori asarlarini lingvopoetik jihatdan o‘rganish adabiyotshunoslik fani uchun ham, tilshunoslik fani uchun ham benihoya katta foyda keltirishi shubhasiz, qolaversa, bunday o‘rganish yosh ijodkorlar uchun ham juda katta amaliy ahamiyatga ega. To‘g‘ri, bu yo‘nalishda ayrim ishlar qilingan³, ammo bu ishlar A.Qahhor asarlarining yaxlit lingvopoetikasini yaratish uchun hali mutlaqo yetarli emas.

Abdulla Qahhor so‘zi – chinakamiga xalq so‘zi. U o‘z hikoyalarida badiiy

¹ N.Mahmudovning to‘plamga kiritilgan maqolalari quyidagi manbadan olindi: N.Mahmudov. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 152 б.

² “Совет Ўзбекистони” газетаси, 1985 йил 29 январь.

³ Кучкартаев М. Фразеологическое новаторство А.Каххара. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1965; Кучкартаева Р. Работа А.Каххара над языком своих произведений (На материале романов “Сароб” и “Кўшчинор чироқлари”). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1980.)

maqsad uchun soʻzlarni aslo “qistamaydi”, “majbur qilmaydi”, balki xalq tilining oʻzidan ana shu maqsadga munosib, loyiq boʻlgan soʻzlarni bitta-bitta terib, topib oladi. Badiiy tafakkurning boy va murakkab tarixidan maʼlumki, tilga “zoʻrlik” qilishning 2 xil, bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi koʻrinishi mavjud. Ularning birini, taʼbir joiz boʻlsa, tilga “agressiv zoʻrlik qilish” deb, ikkinchisini esa tilga “progressiv zoʻrlik qilish” deb atash mumkin. Bir paytlar rus futurist shoirlari (V.Xlebnikov) til qonuniyatlariga sigʻmaydigan soʻzlar, soʻz formalari, sintaktik konstruksiyalar tuzib, (masalan, “Добрый утра”, “Он хожу” kabi), “Biz sintaksisni zaiflashtirdik” degan daʼvo bilan chiqqan edilar⁴. Bu, albatta, tilga “agressiv zoʻrlikdir” va bu hol bugungi kunda rad etilgan, tilga bunday zoʻrlik asosli emas. Tilning umumiy qonuniyatlari doirasida muayyan badiiy-stilistik maqsad bilan yangi soʻz, soʻz shakllari yasash, soʻzni yangicha qoʻllash kabilarni esa tilga progressiv, ijobiy “zoʻrlik” deb qarash mumkin, ular, yaʼni individual-stilistik neologizmlar, yangicha qoʻllashlar, sinestetik metaforalar, oksyumoronlar yozuvchining badiiy tasvir maqsadiga xizmat qiladi. Bunday individual qoʻllashlarni Oybek, Hamid Olimjon, Gʻafur Gʻulom, Maqsud Shayxzoda, Asqad Muxtor, Mirtemir kabi yirik soʻz sanʼatkorlari asarlarida ham, isteʼdodli yosh ijodkorlar asarlarida ham koʻplab uchratamiz. Mazkur hol, yaʼni tilga ijobiy “zoʻrlik” qilish baribir hali til meʼyoriga, standartiga kirmagan boʻladi. Shuning uchun boʻlsa kerak, A.Qahhor hikoyalarida ana shunday neologizm, oksyumoron kabi vositalar yoʻq yoki yoʻq hisobi. Chinakamiga xalq sanʼatkori boʻlgan A.Qahhor xalq tilining oʻzida boʻlmagan har qanday vositadan, u badiiy tilga qanchalik jilo berishidan qatʼi nazar, voz kecha olgan koʻrinadi. Ayni paytda aytish lozimki, bu hol yozuvchining benazir, oʻziga xos hikoya uslubi bilan ham bogʻliq. A.Qahhor soʻzni shunday qoʻllaydiki, bunda soʻzning asosiy maʼnosidan tashqari uning barcha maʼno qirralari, nozikliklari aniq-tiniq koʻrinib turadi, soʻzning maʼno qirralari umumiy voqea, holat, yozuvchi pozitsiyasi, hikoyaning yaxlit intonatsiyasiga toʻligʻicha yopishib tushadi. Masalan, “Anor” hikoyasida oʻqiyimiz: – *Yo qudratingdan, ishonmaydi-ya! – dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab, – mana, chaynab koʻr! Koʻrgin, boʻlmasa innaykeyin degin...*

Ayni oʻrinda *narsa* soʻzi emas, balki atayin *mato* soʻzi qoʻllangan. *Narsa* soʻzi stilistik jihatdan neytral, *mato* soʻzi esa ayni maʼnosi bilan neytral emas, yaʼni unda kamsitish bilan bogʻliq maʼno qirralari mavjud, bu maʼno qirralari *titkilab* feʼl shakli bilan yana ham taʼkidlangan. Anorga boshqorongʻi boʻlgan va erining anor olib kelishini intiq kutib oʻtirgan xotin nazarida, bu-ku arining uyasi – mumli asal ekan, toza asalning oʻzi ham *narsa* emas, faqat *mato*. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqea rivoji ayni oʻrinda *mato* soʻzini boshqa sinonim soʻz bilan almashtirishga imkon bermaydi. *Mato* soʻzi mazkur oʻrinda yozuvchining tugal mahorati bilan oʻzining butun leksik va estetik mohiyatini namoyon qila olgan.

⁴ Степанов Й.С. В трехмерном пространстве языка. Семиотические проблем лингвистики, философии, искусства. – М.: “Наука”, 1985. 199-бет

Mohir soʻz sanʼatkori har bir soʻzning xalq orasidagi, muayyan sotsial tabaqa, kattalar va bolalar oʻrtasidagi qoʻllanishidagi maʼno qirralarini ham muntazam koʻrsata oladi. Mana, “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidan parcha:

Hu oʻl, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Makallada sasib, oʻquvchi qizlarga kun bermaysan-u, oʻzing notoʻgʻri ish qilasan...

Parchadagi gaplar oʻn ikki yoshlardagi oʻquvchi qizning gaplari, ayniqsa, oxirgi gapdagi *notoʻgʻri* soʻzining oʻquvchi tasavvuriga xos bir maʼno qirrasini yaqqol sezilib turibdi. Ayni oʻrinda *notoʻgʻri* soʻzining maʼno hajmi anchayin katta. Yosh oʻquvchi tasavvuriga koʻra jamiki yomon, nomaqbul ishlar *notoʻgʻri* ishlaridir, shuning uchun ham oʻquvchi nutqidagi bu soʻzda ham nafrat, ham kichik bir oʻch mujassam. Kattalar nutqida ayni soʻz mazmunan bunday hajmga ega emas, yozuvchi bu kabi farqlarni ziyraklik bilan his qiladi.

A.Qahorning bir jumlasida qoʻllangan soʻz keyingi jumla mazmuni fonida yana ham tiniqlashadi, naqadar oʻz oʻrnida ekanligi ravshanlashadi. “Bemor” hikoyasining birinchi jumlasini shunday: *Sotiboldining xotini ogʻrib qoldi*. Maʼlumki, *ogʻrib qolmoq*, feʼlining anchagina sinonimi bor (*betob boʻlmoq, kasal boʻlmoq, tobi qochmoq, mazasi qochmoq* va hokazo), lekin yozuvchi aynan shu feʼlni qoʻllaydi. Hikoyadagi ikkinchi jumla: *Sotiboldi kasalni oʻqitdi – boʻlmadi, tabibga koʻrsatdi*. Bu jumla *ogʻrib qolmoq* feʼlining maʼnosini yanada taʼkidlaydi, ogʻriqning – ham tan, ham qalb ogʻrigʻining chuqurligi va bu ogʻriq oldida Sotiboldining chorasizligi alohida urgʻu oladi.

Endi yozuvchining “Tomoshabogʻ” hikoyasiga eʼtibor qilaylik. Hikoya shunday boshlanadi: *Qadaqchi Xamroqulning tobi qochdi*. Tabiiyki, *tobi qochmoq* iborasi ham *ogʻrib qolmoq* feʼli mansub boʻlgan sinonimik qatorga kiradi, lekin yozuvchi bu oʻrinda ayni iborani tanlagan. Hikoyaning ikkinchi jumlasini bunday: *Kim biladi, kecha kechqurungi xudoyi osh yoqmadimi, yo ertalab choynak qadaqlatib ketgan kishining nosida bir gap bor ekanmi...* Mana shu ikkinchi jumlaning oʻziyoq mazkur oʻrinda *tobi qochmoq* iborasining joiz ekanligini koʻrsatib turibdi.

A.Qahhor hikoyalarida keskir kinoyaning oʻtkir namunalarini benihoya koʻp, har bir soʻz xuddi muayyan kinoya ifodasi uchun yaratilganday. Yozuvchi soʻzlardagi koʻp maʼnolilik (polisemiya), shakldoshlik (omonimiya), zid maʼnolilik (antonimiya), nisbiy shakldoshlik (paronimiya) kabi hodisalardan beqiyos ustalik bilan foydalanadi. Masalan, *ochmoq* feʼli koʻp maʼnoli soʻz, bu soʻzning “kashf qilmoq” va “fosh qilmoq” maʼnolari yozuvchining “Bek” nomli hikoyasida shunday ustalik bilan istifoda qilinganki, natijada mana bunday betakror kinoya yuzaga kelgan:

(Bek): – *Xon-monimdan kechaman, dunyodan portfelsiz, paltosiz oʻtaman, ammo bu ishni ochmasdan qoʻymayman!*

Sherigim unga bir stakan suv berdi, paltosini kiygizib qoʻydi, portfelini qoʻliga berib, yupatdi:

– *Qoʻying, Begim, oʻzingizni urintirmang. Albatta, ochib tashlaysiz: Kolumb, xotin taloq, Amerikani tinch qoʻyganda, albatta, oʻzingiz ochar edingiz...*

Bunday misollarni A.Qahorning har bir hikoyasidan juda ko'plab keltirish va so'zning semantik hamda estetik jihatdan bu qadar boyligidan qayta-qayta huzurlanish mumkin.

Yozuvchi hikoyalarida so'zlarning shakliy va semantik yaqinligiga asoslangan so'z o'yinlari ham talaygina. Aytish kerakki, bunday so'z o'yinlari quruq va shunchaki o'yin bo'lib qolgan emas, aksincha, qahramon va voqeaning konkret tasviri uchun yopishib tushgan, shunga astoydil xizmat qilgan. Mana bir-ikki dalil. "Qanotsiz chittak" hikoyasida o'qiyimiz: *Lekin zavodda uni Nabigul emas, "progul" deyishadi.* Ko'rinib turibdiki, ayni so'z o'yini Nabining xarakteristikasini ham ochib bergan. Yana shu hikoyadan: – *Bu nima deng, amaki, – dedi Nabigul tokchadagi bir chirpit musallasni ko'rsatib.*

– *Aqlning qayrog'i!*

– *Yo'q, amaki, bu – qasam. Men bugun qasam ichaman. Qodirjon akam sex boshligi bo'lgan kundan boshlab udarnik bo'lishga qasam ichaman!* Bu o'rinda ham so'z o'yini maqsadli va behad chiroyli.

Abdulla Qahorning xalq frazeologik iboralaridan foydalanish mahorati ham hayratlanarlidir. Xalqning so'z donoligini mukammal egallagan yozuvchi o'z hikoyalarida iboralardan muntazam va ifoda maqsadiga favqulodda muvofiq tarzda foydalanadi. O'zi ham yangi iboralar yaratadi, ammo bu yangi iboralar xalqning o'zida mavjud bo'lgan iboralarning modeliga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun yozuvchining yangi iborasini o'qiganda, xalqning o'zidagi tegishli ibora ham esga tushadi. Aytish mumkinki, yozuvchi bitta iborani qo'llaydi, lekin yozuvchi maqsadi uchun bir paytning o'zida ikkita ibora "ishlaydi". Mana bir dalil: *Eshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi* ("Ikki yorti – bir butun" hikoyasi). Ayni ibora Qahorniki, bu iborani o'qish bilan "*Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi*" degan xalq iborasi esga tushadi, ya'ni matnda yashirin ravishda bu ibora ham ishtirok etadi, uni birinchi ibora ovozsiz "chaqiradi". Bu – qahhorona mahorat.

Bu qahhorona mahorat yozuvchining o'xshatishlar yaratishida ham ravshan ko'rinadi. Uning hikoyalarida xalq tilida bor o'xshatishlar bilan bir qatorda, yangi, ohorli, holat tasvirini fotografik kartina tarzida ko'rsatib beruvchi o'xshatishlar ko'p. Ikkitagina misol: *Kamolxonov, iltimosiga "xo'p" degan javobni kutib, savol alomatiday gajjak bo'lib turganida, telefon jiringlab koldi* ("Ikki yorti – bir butun"). *Deraza yonida endigina sabz urgan mo'ylovi teskari qo'yilgan qushga o'xshash bir yigit...* ("Oltin yulduz").

Har bir so'z, ibora, konstruksiyada, obraz va detalda tasvir obyektiga yozuvchining munosabati, milliy ruh, manaman deb turadi. Bu haqda uzoq va hijjalab gapirish mumkin. Lekin ushbu parchaning o'zidayoq bunga to'liq ishonch hosil qilish mumkin: *Ahmadjon nemisning o'ttiz ikki otar to'pponchasiga "o'zbekning bir qoqar bolg'achasi – musht bilan javob qildi. Ofitser yiqildi va yotgan yerida qo'lini ko'tardi* ("Oltin yulduz").

Abdulla Qahhor hikoyalarining sintaksisi ham o'ziga xos. Avvalo aytish lozimki, uning hikoyalarida gap strukturasi ko'p tarmoqli, ya'ni xalqning ayni jonli so'zlashuviga xos bo'lgan struktura, tom ma'nodagi tirik nutq. Ana shu ma'noda yozuvchi tilining haqiqiy xalqchilligi uning sintaktik konstruksiyalarida ham yaqqol ko'rinadi. Mana bu parchadagi sintaktik strukturalarga e'tibor qiling: *U avval nemisni qarg'adi, keyin yigitdan koyidi:*

- *Axir, seni bola-chaqangdan ayirgan-ku shu qurib ketgurlar edi, uni otaman degan kishining nega qo'lini tutasan! Xat o'qiyotibdi emish-a! Bola-chaqasi bilan qo'shmozor bo'lmaydimi... O'ziga-o'zi qilibdi-da ("Asror bobo").*

Bunday xalqona konstruksiyalar faqat personajlar nutqigagina xos emas, balki deyarli barcha hikoyalaridagi muallif nutqiga ham xosdir. Yozuvchining har bir jumlasida jonli nutqqa xos sintaktik ohang baralla eshilib turadi. "Qabrdan tovush" hikoyasi bunday boshlanadi: *Usta Turdiali xudo bilan ilgari durust edi, uch yarim yashar qizchasi o'ldi-yu, orasi buzildi. Olamda har narsa esdan chiqishi, har qanday ranj-kulfat ko'ngildan ko'tarilishi mumkin; lekin uch yarim yashar bo'lib o'lgan farzand dog'i... yo'q!* Bu holatlar Abdulla Qahhor uslubiga xos eng muhim shtrixlardan biridir.

Mustaqil jumllarning o'zaro bog'lanishi, bu bog'lanishni ta'minlovchi leksik-semantik va sintaktik-funksional vositalarning mukammal va muvofiqligi ham yozuvchining o'ziga xosdir. Qo'shma gaplarning ham ko'proq ergash gapli tipi nisbatan ko'proq kuzatiladi, chunki bu tip qo'shma gap uzvlarining o'zaro bog'lanishi bog'langan qo'shma gaplardagiga qaraganda ancha zich va mustahkam bo'ladi. Umuman, gaplarning lisoniy va mantiqiy bog'lanishi A.Qahhor hikoyalarida benihoya raso, bir gap o'zidan keyingi gapni, albatta, mazmuniy-mantiqiy jihatdan qat'iy taqozo etib turadi. Bu qat'iy bog'lanish esa hikoyadagi voqea va aytilmoqchi bo'lgan g'oyaga mutlaqo uyg'un bo'lib tushadi, hikoyadagi umumiy intonatsiyaning, biror darajada bo'lsin, susayishiga yo'l qo'ymaydi. Ana shular uchun bo'lsa kerak, Abdulla Qahhorning benazir hikoyalarini hatto xuddi she'riy asar kabi to'laligicha yod olish mumkin.